| Ibragimova Saodat Abdumom'inovna                                                                                                                                            |     |



|                                                                                                                                                                                                         |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI .....                                                                                          | 990  |
| Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna                                                                                                                                                                          |      |
| IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI .....                                                                                                                          | 995  |
| Davlatova Ozoda Olmos qizi                                                                                                                                                                              |      |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....                                        | 1001 |
| Suyunova Dilfuza Dilmurod qizi                                                                                                                                                                          |      |
| BOZORNI SEGMENTATSIYALASHDA MARKETING TADQIQOTLARINING ROLI .....                                                                                                                                       | 1006 |
| Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilxomovna                                                                                                                                                    |      |
| O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI .....                                                                                                                                        | 1010 |
| Sharifboyev Bunyod Azamat o'g'li, Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna                                                                                                                                    |      |
| TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITALNING ROLI .....                                                                                                                                     | 1016 |
| Mirzaraximova Nurhayot Baxrom qizi                                                                                                                                                                      |      |
| ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНОЧНОЙ КОНКУРЕНЦИИ .....                           | 1020 |
| Ходжаева Наргизахон Анатолиевна                                                                                                                                                                         |      |
| FUNDRAISING AS A STRATEGIC TOOL IN MUSEUM MANAGEMENT .....                                                                                                                                              | 1028 |
| Aziza Ibroximova                                                                                                                                                                                        |      |
| KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI .....                                                                                          | 1035 |
| Boboraxmatova Shohsanam Ibdullo qizi                                                                                                                                                                    |      |
| MOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI XALQARO STANDARTLARGA O'TKAZISHNING O'ZBEKISTONDAGI DINAMIKASI VA NATIJALARI (OLMALIQ KMK MISOLIDA) .....                                                                    | 1043 |
| A.J.Tuychiyev, M.V Abdunabiyeva                                                                                                                                                                         |      |
| TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI QURISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: FARG'ONA VODIYSI (FARG'ONA VILOYATI VA QO'QON HUDUDI) MISOLIDA RAQAMLI LOYIHALASH, OPTIMALLASHTIRISH VA INTELLEKTUAL BOSHQARUV ..... | 1051 |
| Yakubov Maqsadxon Sultaniyazovich, Norinov Muhammadyunus Usibjonovich, Zikrayev Akmaljon Alimovich                                                                                                      |      |
| O'ZBEKISTONDA KORPORATIV INNOVATSIYA TIZIMINI ISH SAMARADORLIGINI BAHOLOVCHI (KPI) AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....                                                | 1057 |
| Rafikova Kamila Baxtiyorovna                                                                                                                                                                            |      |
| RAQAMLI BANK XIZMATLARINING MOLİYAVIY BOZOR RIVOJIGA TA'SIRI .....                                                                                                                                      | 1063 |
| Abdulazizov Javohir Abduvali o'g'li                                                                                                                                                                     |      |
| OILAVIY TADBIRKORLIKNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLİYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI .....                                                                                                            | 1070 |
| Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich                                                                                                                                                                     |      |
| AMORTIZATSIYALANADIGAN AKTIVLAR HISOBINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI .....                                                                                                                              | 1077 |
| Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li                                                                                                                                                                      |      |
| BANKLARDA RISK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH .....                                                                                                                                      | 1083 |
| Karimov Shoxrux Boydulla ugli                                                                                                                                                                           |      |
| DIGITALIZATION, RESEARCH CAPACITY AND HIGHER EDUCATION DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: AN ARDL-ECM ANALYSIS (2000-2024) .....                                                                                | 1087 |
| Ismailova Nilufar                                                                                                                                                                                       |      |
| TURIZMDA TALAB VA TAKLIFNI BAHOLASH USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....                                                                                                                         | 1094 |
| Suyunov Alijon Jumaboy o'g'li                                                                                                                                                                           |      |
| ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ДОХОДАМИ И РАСХОДАМИ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ .....                                                                                                             | 1099 |
| Аймухаммедова Амина Какажановна                                                                                                                                                                         |      |
| "O'ZMILLIYBANK" AJDA MIJOZLARINING KREDITGA LAYOQATLILIGI DARAJASI HOLATI TAHLILI .....                                                                                                                 | 1105 |
| Jumaniyazov Quvanchbek Amatjonovich                                                                                                                                                                     |      |



|                                                                                                                                                                                    |      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA ISHLAB<br>CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....                                                                | 1110 |
| Qodirov Bekzod Xomidjonovich                                                                                                                                                       |      |
| FARMATSEVTIKA SANOATINING ASOSIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI IQTISODIY-STATISTIK<br>USULLARI ORQALI TAHLILI .....                                                                 | 1115 |
| O'taganova Umida Egamberdi qizi                                                                                                                                                    |      |
| MAMLAKATIMIZDA XOTIN – QIZLAR O'RTASIDA MAHALLIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH<br>MASALALARI .....                                                                                 | 1123 |
| Rafiyeva Madina Xusinovna                                                                                                                                                          |      |
| YASHIL IQTISODIYOTDA DEPOZIT TIZIMINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BOSHQARISH .....                                                                                                    | 1128 |
| Norqobilova Feruza Abduhomidovna, Odilov Jahongir Nozimjonovich                                                                                                                    |      |
| OPTIMIZING HUMAN CAPITAL: THE IMPACT OF SCHOOL MANAGEMENT ON ORGANIZATIONAL<br>CULTURE IN VOCATIONAL EDUCATION.....                                                                | 1132 |
| Karimova Dilfuza Xatamjonovna                                                                                                                                                      |      |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSİYALARINING INNOVATSION MAZMUNI RIVOJLANISHINING<br>DOLZARB YO'NALISHLARI .....                                                                       | 1138 |
| Batirova Raxima Abdujabbarovna, Raximjonov Ulug'bek Boxodir o'g'li                                                                                                                 |      |
| IQTISODIY TIZIMLARNI MAKRO VA MIKROIQTISODIY DARAJADA PROGNOZLASH: KONSEPTUAL<br>YONDASHUVLAR VA MODELLASHTIRISH USULLARI .....                                                    | 1142 |
| Alimov Fazliddin Xalimovich                                                                                                                                                        |      |
| ISLOMIY MOLIYA INSTITUTLARIDA FOIZSIZ MOLIYALASHTIRISH TAMOIYLLARINING IQTISODIY<br>MOHIYATI.....                                                                                  | 1147 |
| Pulatova Adolat Djaxangirshyevna                                                                                                                                                   |      |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVASION FAOLIYATNI SAMARALI BOSHQARISH<br>JARAYONLARI .....                                                                                          | 1152 |
| Fayzieva Dilafruz Shuhratovna                                                                                                                                                      |      |
| MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTASI (CENTRAL BANK DIGITAL CURRENCY): NAZARIY ASOSLAR<br>VA XALQARO TA'RIFLARINING QIYOSIY TAHLILI .....                                                | 1156 |
| Tashqo'ziyev Suxrob Abdurazzak o'g'li                                                                                                                                              |      |
| KORXONALARNI MOLIYAVIY INQIROZGA OLIB KELUVCHI SABABLAR VA ULARNI OLDINI OLISH<br>YO'LLARI.....                                                                                    | 1161 |
| Bobomirzayev Isroil                                                                                                                                                                |      |
| ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ, УСЛОВИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ<br>РЕАЛИЗАЦИИ.....                                                                                         | 1165 |
| АскарOVA Мавлуда Турабовна                                                                                                                                                         |      |
| XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA MOLIYAVIY BOZOR MEXANIZMLARINI<br>TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....                                                                       | 1171 |
| Ibragimov G'anijon G'ayratovich                                                                                                                                                    |      |
| BANK TIZIMIDA OPERATSION RISKLARNI BAHOLASH VA MONITORING MEXANIZMLARINI<br>RIVOJLANTIRISH.....                                                                                    | 1176 |
| Muxitdinova Difuza Farxodovna                                                                                                                                                      |      |
| KO'P DARAJALI YONDASHUVNING MIKRO, MEZO VA MAKRO DARAJALARDAGI O'ZARO<br>BOG'LIQLIKLARINI ASOSLASH HAMDA MODEL ARXITEKTURASINI SHAKLLANTIRISHNING<br>METODOLOGIK TAMOIYLLARI ..... | 1183 |
| Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li, Qodirov Farrux Ergash o'g'li                                                                                                                         |      |
| TIJORAT BANKLARI DAROMAD BAZASINING TARKIBI VA DINAMIKASI<br>("TURONBANK" ATB MISOLIDA) .....                                                                                      | 1191 |
| Togayev Salim Sobirovich                                                                                                                                                           |      |



# TIJORAT BANKLARI DAROMAD BAZASINING TARKIBI VA DINAMIKASI (“TURONBANK” ATB MISOLIDA)

**Togayev Salim Sobirovich**

TDIU “Bank hisobi va auditi” kafedrası

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Email: [sts-bank@bk.ru](mailto:sts-bank@bk.ru)

ORCID: 0000-0002-3170-9181

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tijorat banklarining daromad bazasining tarkibi va dinamikasi “Turonbank” ATB misolida keltirilgan. Shuningdek, bankning regulativ kapitali, kreditlardan olingan daromadlari, aktivlar rentabelligi, kapital rentabelligi va sof foizli marjaning darajasi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari daromad bazasi, aktivlar rentabelligi, kreditning daromadligi, kapital rentabelligi, sof foizli marja.

**Abstract.** In this article, the composition and dynamics of the income base of commercial banks is presented on the example of JSCB “Turonbank”. Also, the level of the bank's regulatory capital, income from loans, profitability of assets, profitability of capital and net interest margin was analyzed.

**Key words:** profit base of commercial banks, profitability of assets, profitability of credit, profitability of capital, net interest margin.

**Аннотация.** В данной статье состав и динамика доходной базы коммерческих банков представлены на примере АКБ «Туронбанк». Также был проанализирован уровень регулятивного капитала банка, доходы от кредитов, рентабельность активов, рентабельность капитала и чистая процентная маржа.

**Ключевые слова:** база прибыли коммерческих банков, рентабельность активов, рентабельность кредита, рентабельность капитала, чистая процентная маржа.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son<sup>1</sup>, 2020-yil 12-maydagi “2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi PF-5992-son<sup>2</sup> Farmonlarida tijorat banklarining daromad bazasini shakllantirish mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanganligi, tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan bir qator vazifalarning qo'yilganligi va O'zbekiston tijorat banklarining daromad bazasini shakllantirish hamda boshqarishni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarning mavjudligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi [1, 2].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklari yalpi daromadlarining umumiy hajmida foizli daromadlarning salmog'i kamida 70 foiz bo'lishi kerak [3].

Tijorat banklari foizli daromadlarining umumiy hajmida kreditlardan olingan foizli daromadlar salmog'ining yuqori va barqaror bo'lishi ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Shu sababli, Jahon tiklash va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan taklif etilgan sof foizli spread koeffitsiyentini hisoblash metodikasidan respublikamiz banklarining kreditlardan olingan foizli daromadlarining barqarorligini baholashda foydalanish, fikrimizcha, muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

1 <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-4811025>



I. Leshukovanning xulosasiga ko'ra, bank foydasining darajasini tadqiq qilish uchun bank faoliyatining samaradorligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish zarur bo'lib, ushbu strategiya bank resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan maqsadlar va harakatlar yig'indisidan iboratdir [4].

Sh. Abdullayeva "tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini boshqarishni takomillashtirish yo'li bilan kredit portfelining sifatini oshirish mumkin" [5] deb hisoblaydi.


## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston tijorat banklari, xususan AT "Turonbank"ning 2020–2024-yillardagi moliyaviy hisobotlari, Markaziy bank statistik ma'lumotlari va ochiq rasmiy manbalar asosiy axborot manbai sifatida qo'llanildi. Olingan ma'lumotlar dinamik va tarkibiy tahlil, taqqoslash, nisbiy ko'rsatkichlar hamda moliyaviy koeffitsiyentlar yordamida tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamiz tijorat banklarining daromad bazasini shakllantirish va boshqarishning metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan galdagi dolzarb muammo — bu respublikamiz tijorat banklarida sof foizli marjaning me'yoriy darajasining ta'minlanmaganligidir.


Xalqaro bank amaliyotida sof foizli marja ko'rsatkichining umume'tirof etilgan me'yoriy darajasi 4,5 foizni tashkil etadi (1-rasm):



1-rasm. Turonbankda foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan darajasi, foizda[6]

1-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2020–2024-yillarda Turonbankda foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan darajasi sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Buning ustiga, foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan darajasi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada (14,0 f.p.) oshgan.

Fikrimizcha, Turonbankda foizli xarajatlarning foizli daromadlarga nisbatan darajasi sezilarli darajada yuqori bo'lganligi banklararo kreditlarning majburiyatlar hajmidagi salmog'ining 2020–2024-yillarda nisbatan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi (2-rasm).



2-rasm. Turonbankda banklararo kreditlarning majburiyatlar hajmidagi salmog'i, foizda[6]



2-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2020–2024-yillarda Turonbank majburiyatlarining umumiy hajmida banklararo kreditlar nisbatan yuqori salmoqni egallagan. Bu esa foizli xarajatlar miqdorining oshishiga olib keladi. Buning sababi shundaki, banklararo kreditlar bahosi nisbatan yuqori bo'lgan resurs hisoblanadi. Buning ustiga, xorijiy banklardan suzuvchi stavkada jalb qilingan xalqaro kreditlar foizli xarajatlarning ko'payib ketish ehtimolini oshiradi. Chunki suzuvchi stavkadagi kreditlar qaytariladigan sanadagi foizli stavka bo'yicha so'ndiriladi. 2020–2024-yillarda Turonbank majburiyatlarining umumiy hajmida banklararo kreditlar salmog'ining pasayish tendensiyasiga ega bo'lganligini ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

Shuningdek, sof foizli marjaning me'yoriy darajasini ta'minlash tijorat banklarining yalpi daromadi tarkibidagi foizli daromadlar salmog'i bilan yalpi xarajati tarkibidagi foizli xarajatlar salmog'i o'rtasidagi mutanosiblikni, shuningdek banklarning brutto aktivlari miqdorining o'sish sur'ati bilan yalpi daromad tarkibidagi sof foizli daromadning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi (1-jadval).

1-jadval. AT "Turonbank" daromadlarining tarkibi, foizda[6]

| Ko'rsatkichlar     | 2020y. | 2021y. | 2022y. | 2023y. | 2024y. |
|--------------------|--------|--------|--------|--------|--------|
| Foizli daromadlar  | 84,2   | 83,3   | 75,8   | 76,4   | 78,2   |
| Foizsiz daromadlar | 15,8   | 16,7   | 24,2   | 23,6   | 21,8   |
| Daromadlar - jami  | 100,0  | 100,0  | 100,0  | 100,0  | 100,0  |

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2020–2025-yillarda Turonbank daromadlarining umumiy hajmida foizli daromadlar nisbatan yuqori salmoqni egallagan; foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'i 2025-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa mazkur davrda foizsiz daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'ining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlanadi.

Turonbankning foizli daromadlari tarkibida kreditlardan olingan foizli daromadlar nisbatan yuqori salmoqni egallaydi. Bu esa kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining yuqori ekanligi bilan izohlanadi (2-jadval).

2-jadval. AT "Turonbank"da kreditlardan olingan foizli daromadlarning va kreditlarning darajasi, foizda[6]

| Ko'rsatkichlar                                                                  | 2020y. | 2021y. | 2022y. | 2023y. | 2024y. |
|---------------------------------------------------------------------------------|--------|--------|--------|--------|--------|
| Kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami<br>foizli daromadlardagi ulushi | 74,8   | 76,8   | 80,8   | 92,3   | 92,1   |
| Kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i                                | 76,5   | 73,8   | 73,2   | 74,6   | 71,4   |

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, Turonbankda 2020–2024-yillarda kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi ulushi sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Buning ustiga, ushbu ko'rsatkich 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bundan tashqari, Turonbankda kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i 2020–2024-yillarda sezilarli darajada yuqori bo'lgan, biroq 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan.

Tijorat banklarining daromad bazasini shakllantirishda foizsiz daromadlar o'ziga xos o'rin tutadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali Turonbankning foizsiz daromadlarining tarkibiga baho beramiz (3-jadval).

3-jadval. AT "Turonbank" foizsiz daromadlarining tarkibi, foizda[6]


| Ko'rsatkichlar                                                                        | 2020y. | 2021y. | 2022y. | 2023y. | 2024y. |
|---------------------------------------------------------------------------------------|--------|--------|--------|--------|--------|
| Komission daromadlar                                                                  | 62,5   | 64,5   | 32,5   | 30,9   | 30,2   |
| Valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlar                                          | 19,4   | 13,2   | 40,3   | 23,0   | 19,7   |
| Investitsiyalardan olingan daromadlar va dividendlar                                  | 1,4    | 0,4    | 0,3    | 4,5    | 0,5    |
| Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarni qaytarilishi | 10,7   | 13,6   | 14,3   | 29,8   | 35,8   |
| Hisobdan chiqarilgan kreditlarni qaytarilishi bilan bog'liq daromadlar                | 2,3    | 4,1    | 4,4    | 6,8    | 3,3    |
| Boshqa foizsiz daromadlar                                                             | 3,7    | 4,2    | 8,2    | 5,0    | 10,5   |
| Foizsiz daromadlar - jami                                                             | 100,0  | 100,0  | 100,0  | 100,0  | 100,0  |



3-jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, 2020–2024-yillarda Turonbankning foizsiz daromadlari tarkibida nisbatan yuqori salmoqni komission daromadlar, valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlar hamda aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarni qaytarishdan olingan daromadlar egallagan.

Shuningdek, Turonbankning foizsiz daromadlari hajmida komission daromadlarning salmog'i 2021–2024-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa mazkur davrda aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarni qaytarish bilan bog'liq daromadlarning foizsiz daromadlarning umumiy hajmidagi salmog'ining oshish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

3-jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, Turonbankning foizsiz daromadlari hajmida valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlarning salmog'i 2022–2024-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan (3-rasm).



3-rasm. Turonbank xarajatlarning tarkibi, jamiga nisbatan foizda[6]

3-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020–2024-yillarda Turonbank xarajatlarning umumiy hajmida foizli xarajatlar nisbatan yuqori salmoqni egallagan. Buning ustiga, foizli xarajatlarning jami xarajatlardagi ulushi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

2020–2024-yillarda Turonbank xarajatlarning umumiy hajmida foizsiz xarajatlar nisbatan kichik salmoqni egallagan, shuningdek 2020–2024-yillarda Turonbank xarajatlarning umumiy hajmida operatsion xarajatlar nisbatan yuqori salmoqni egallagan. Biroq operatsion xarajatlarning jami xarajatlardagi ulushi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari daromad bazasining tarkibi va dinamikasini yaxshilash borasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Tijorat banklari foizli daromadlarining yalpi daromad hajmidagi salmog'ining barqarorligini ta'minlash maqsadida foizli xarajatlar va foizli daromadlar o'rtasidagi barqaror nisbatni ta'minlash.
2. Tijorat banklari yalpi daromadlarining umumiy hajmida foizli daromadlarning salmog'i kamida 70 foiz bo'lishini ta'minlash.
3. Kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan brutto kreditlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikka erishish.
4. AT Turonbankning sof foizli marjasi darajasini ushbu ko'rsatkichning me'yoriy darajasiga yetkazish.
5. Innovatsion kredit mahsulotlarini (overdraft, kontokorrent, sinditsiyali kredit, faktoring) banklarning kreditlash amaliyotiga joriy etish.
6. AT Turonbankning aktivlar rentabelligi darajasini muntazam ravishda oshirib borish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сонли «2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш» тўғрисидаги Фармони



3. Макнотон Д. Банковские учреждения в развивающихся стран. Пер. с англ. – Вашингтон: ИЭР, 1994. – С.71.
4. Лещукова И. В. Прибыль коммерческого банка и ее источники//Инновационная наука. – Москва, 2017. - № 5. - С. 114 – 116.
5. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари шароитида тижорат банкларининг кредит портфелини диверсификациялаш. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. Авторефер. – Тошкент, 2000.- 46 б.
6. АТ “Туронбанк”нинг 2020-2024 молиявий йилларнинг якуни бўйича эълон қилинган молиявий ҳисоботларининг маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 1

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>